

OG'IR NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Mardonova Dinaraxon Saloxiddin qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Logopediya kafedrası tayanch doktoranti E-mail:  
dinaranabiyev1998@gmail.com Tel.: +998 97717 25 04

**Annotatsiya(UZ):** Ushbu maqolada og'ir nutq kamchiligiga ega, xususan motor alaliyali 5–6 yoshli bolalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalar tahlil qilingan. Neyropsixologik diagnostika, logoritmika, artikulyatsion texnologiyalar, sensor integratsiya, vizual qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalar hamda multidissiplinar yondashuvlarning nutqiy va kognitiv rivojlanishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, individual yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlikning korreksion jarayondagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Аннотация(RUS):** В данной статье проанализированы современные подходы и технологии, применяемые в развитии детей 5–6 лет с тяжёлыми нарушениями речи, в частности с моторной алалией. Рассмотрено влияние нейropsихологической диагностики, логоритмики, артикуляционных технологий, сенсорной интеграции, визуальной поддержки, цифровых технологий и мультидисциплинарного подхода на речевое и когнитивное развитие. Также обоснована роль индивидуального подхода и сотрудничества с родителями в коррекционном процессе.

**Abstract(EN):** This article analyzes modern approaches and technologies used in the development of 5–6-year-old children with severe speech disorders, particularly motor alalia. The impact of neuropsychological diagnostics, logorhythmics, articulation technologies, sensory integration, visual support, digital technologies, and multidisciplinary approaches on speech and cognitive development is described. The importance of an individual approach and cooperation with parents in the correctional process is also emphasized.

**Kalit so'zlar(UZ):** motor alaliya, og'ir nutq kamchiligi, neyropsixologik yondashuv, logoritmika, sensor integratsiya, artikulyatsion mashqlar, raqamli texnologiyalar, kognitiv rivojlanish.

**Ключевые слова(RUS):** моторная алалия, тяжёлые нарушения речи, нейropsихологический подход, логоритмика, сенсорная интеграция, артикуляционные упражнения, цифровые технологии, когнитивное развитие.

**Key words(EN):** motor alalia, severe speech disorder, neuropsychological approach, logorhythmics, sensory integration, articulation exercises, digital technologies, cognitive development.

Insonning to'laqonli rivojlanishi ko'p jihatdan nutqning o'z vaqtida va to'g'ri shakllanishiga bog'liq. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur, bilish faoliyati va shaxsning ijtimoiylashuvining asosi hisoblanadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan og'ir nutq kamchiliklari, xususan motor alaliyasi, bolaning butun keyingi rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Motor alaliyasi — bu markaziy nerv sistemasining organik zararlanishi natijasida yuzaga keladigan va nutqning ekspressiv tomonini shakllantirishga mas'ul bo'lgan miya po'stlog'i zonalarining etarli darajada rivojlanmasligi bilan bog'liq murakkab nutq buzilishidir. Bunday bolalarda nutqning kechikib shakllanishi yoki umuman shakllanmasligi kuzatilib, bu holat kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa 5–6 yosh davri — bolaning maktabga tayyorgarlik ko'rish davri bo'lganligi sababli, bu bosqichda korreksion ishlarning to'g'ri va samarali tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy logopedik yondashuvlar ko'p yillar davomida o'z samaradorligini ko'rsatib kelgan bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklar davomida neyropsixologiya, kognitiv fan va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi korreksion pedagogika oldiga yangi imkoniyatlar va yangi talablarni qo'ydi. Bugungi kunda birgina nutqiy apparatga ta'sir etish yetarli emas — bolaning miyasi, sensor tizimlari, kognitiv funksiyalari va ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga bir vaqtning o'zida kompleks yondashuv talab etiladi. Bu esa o'z navbatida ilm-fan yutuqlari asosida ishlab chiqilgan zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga faol joriy etishni taqozo etadi.

Zamonaviy korreksion-logopedik amaliyotda motor alaliyali bolalar bilan ishlashda yagona, universal usul mavjud emas. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish sur'ati, kuchli va zaif tomonlari hamda individual ehtiyojlari bilan farqlanadi. Shu sababli mutaxassislar oldida turli xil texnologiyalar va yondashuvlardan maqsadga muvofiq foydalanish, ularni bir-biri bilan uyg'unlashtirish vazifasi turadi.

Bugungi kunda motor alaliyali bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishda bir nechta asosiy yo'nalishlar ajralib turadi. Neyropsixologik diagnostikadan tortib raqamli texnologiyalargacha, sensor integratsiyadan oilaviy terapiyagacha bo'lgan keng qamrovli yondashuvlar majmui zamonaviy logopediya fanining salohiyatini yaqqol ko'rsatib beradi. Ushbu yondashuvlarning har biri muayyan maqsadga xizmat qilib, bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi.

Quyidagi jadvalda motor alaliyali bolalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy texnologiyalar, ularning maqsadi, qo'llaniladigan metodlar va samaradorligi umumlashtirilgan holda keltirilgan.

1-jadval

Texnologiya turi	Asosiy maqsad	Metodlar va usullar	Samaradorligi
Neyropsixologik yondashuv	Miyaning funksional sistemalarini tiklash va kompensatsiya qilish	Motor, sensor, nutqiy va kognitiv funksiyalarni baholash	Buzilishlarning neyropsixologik mexanizmlarini aniq aniqlash imkonini beradi
Logoritmika va musiqiy terapiya	Nutqiy va harakat koordinatsiyasini yaxshilash	Ritmik she'rlar, musiqiy-harakatli o'yinlar, fonematik mashqlar	Nutq va tovushlarni idrok etish qobiliyatini oshiradi
Artikulyatsion texnologiyalar	Og'iz motorikasi va artikulyatsion apparat funksiyalarini rivojlantirish	Logopedik massaj, miofunktional terapiya, bioenergoplastika, kineziologik mashqlar	Artikulyatsion praksisni yaxshilaydi

Sensor integratsiya terapiyasi	Sensor axborotni qabul qilish va qayta ishlashni yaxshilash	Sensor yo'laklar, vestibulyar mashqlar, taktil stimulyatsiya	Barcha sensor sistemalarning uyg'unlashgan ishlashini ta'minlaydi
Vizual qo'llab-quvvatlash	Nutqiy buzilishlarni kompensatsiya qilish	Piktogrammalar, vizual jadvallar, kommunikatsiya kartochkalari	Kundalik muloqotni osonlashtiradi
BOS texnologiyalari	Nutqiy va kognitiv faoliyatni yaxshilash	Kompyuter dasturlari orqali nutq parametrlarini vizual nazorat qilish	Nutq temp, ritm va tovush balandligini mustaqil nazorat qilish imkonini beradi
Raqamli texnologiyalar	Korreksion jarayonni qiziqarli va samarali qilish	"Logoritmika", "Artikulyariy", "Memorika", "Pazl-terapiya" ilovalari	Bolalar motivatsiyasini oshiradi, korreksion jarayonni samaraliroq qiladi
Montessori metodikasi	Mustaqil faoliyat va sensor tajribani boyitish	Sensor, matematik va amaliy hayot materiallari	Kognitiv funksiyalar, nutqiy faollik va mayda motorikani rivojlantiradi
Multidissiplinar yondashuv	Kompleks korreksion yordam ko'rsatish	Logoped, neyropsixolog, defektolog, psixolog, nevrolog hamkorligi	Yuqori kompleks samara beradi
Oilaviy terapiya	Ota-onalarni korreksion jarayonga jalb etish	Psixoedukatsiya, treninglar, konsultatsiyalar	Bolaning nutqiy va kognitiv rivojlanishini uyda ham davom ettirish imkonini beradi

### Neyropsixologik yondashuvga asoslangan texnologiyalar

Neyropsixologik yondashuv motor alaliyali bolalarni korreksion-logopedik ishda muhim asos hisoblanadi. Zamonaviy neyropsixologik yondashuvlar A.R. Luriya ta'limotiga asoslanadi va miyaning funksional sistemalari faoliyatini tiklash hamda kompensatsiya qilish tamoyillariga tayanadi (Svetkova L.S., 2017; Axutina T.V., Pilayeva N.M., 2018).

### Neyropsixologik diagnostika va korreksiya

Motor alaliyali bolalarda samarali korreksion ishni tashkil etish uchun dastlab neyropsixologik diagnostikani o'tkazish zarur. Bu jarayon bolalarning nutqiy buzilishlari va kognitiv disfunktsiyalarining neyropsixologik mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Neyropsixologik diagnostika usullari: motor funksiyalarni (umumiy, mayda va artikulyatsion motorika) baholash; sensor funksiyalarni (fonematik idrok, vizual-prostranstven analiz) baholash; nutqiy funksiyalarni (ekspressiv va impressiv nutq) baholash; kognitiv funksiyalarni (diqqat, xotira, tafakkur) baholash; ijro funksiyalarini (ishchi xotira, rejalashtirish, tormozlash) baholash (Glozman J.M., 2016).

### Miyaning funksional bloklari bilan ishlash texnologiyalari

A.R. Luriya ta'limotiga ko'ra, miya faoliyati uchta funksional blokka bo'linadi:

1. Energetik blok (tonus regulyatsiyasi);
2. Axborotni qabul qilish va qayta ishlash bloki;
3. Rejalashtirish va nazorat qilish bloki.

Birinchi blok (tonus regulyatsiyasi) bilan ishlash texnologiyalari: sensomotor integratsiya mashqlari (marimba, sensor to'pchalar bilan ishlash); vestibulyar gimnastika (muvozanat taxtachasi, gimnastik to'p, batut); ritmik mashqlar (metronomga moslab harakatlar bajarish); markaziy nerv sistemasining umumiy tonusini oshiruvchi nafas mashqlari.

Ikkinchi blok (axborotni qabul qilish va qayta ishlash) bilan ishlash texnologiyalari: fonematik eshituvni rivojlantiruvchi mashqlar (tovushlarni farqlash, ritmik strukturalarni takrorlash); vizual-fazoviy tasavvurlarni shakllantiruvchi o'yinlar (labirintlar, geometrik shakllar bilan ishlash); taktil va kinestetik sezgilarni rivojlantiruvchi mashqlar (sensor qutilar, fakturali materiallar).

Uchinchi blok (rejalashtirish va nazorat qilish) bilan ishlash texnologiyalari: ijro funksiyalarini rivojlantiruvchi mashqlar ("Stop-signal", "Figuralarni eslab qolish"); o'z-o'zini nazorat qilish va rejalashtirish o'yinlari (vizual jadvallar asosida); ketma-ketlikni anglash mashqlari (kundalik hayotda harakatlar algoritmini tuzish).

Nutqni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari

Logoritmika va musiqiy terapiya

Logoritmika (logopedik ritmika) - nutq, musiqa va harakatni birlashtiruvchi kompleks metod bo'lib, motor alaliyali bolalarda nutqiy va harakat koordinatsiyasini yaxshilash, ritmni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, nutq va tovushlarni idrok etish qobiliyatini oshirishda samarali hisoblanadi (Volkova G.A., 2018).

Logoritmika mashg'ulotlari elementlari: ritmik she'rlar va qo'shiqlar (bolalarning yosh xususiyatlariga mos); harakatli-musiqiy o'yinlar ("Ritmik exo", "Buyumlarni almashtir"); musiqiy-ritmik improvizatsiyalar (turli musiqa asboblari ritmni takrorlash); fonematik mashqlar bilan birlashtirilgan ritmik tuzilmalar.

Artikulyatsion apparatni rivojlantirish texnologiyalari

Motor alaliyali bolalarda og'iz motorikasi va artikulyatsion apparat funksiyalari buzilganligi sababli, bu sohaga alohida e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy artikulyatsion texnologiyalar: logopedik massaj (Ye.V. Novikova metodikasi); miofunktsional terapiya (Deniel Garliner metodikasi); bioenergoplastika (A.V. Yastrebova metodikasi) - bunda artikulyatsion mashqlar bajarilayotganda qo'l harakatlari bilan mustahkamlanadi; kineziologik mashqlar (P. Dennison metodikasi) - miyaning o'ng va chap yarim sharlari orasidagi aloqalarni faollashtiradi.

Bu texnologiyaning afzalligi shundaki, u nafaqat artikulyatsion apparatni, balki miyaning rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Kognitiv funksiyalarni rivojlantirish texnologiyalari

O'yin terapiyasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv funksiyalarni rivojlantirishning eng samarali yo'li o'yin faoliyati hisoblanadi, chunki aynan o'yin bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi hisoblanadi (Elkonin D.B., 2007).

Kognitiv funksiyalarni rivojlantiruvchi o'yinlar: syujetli-rolli o'yinlar (kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun); didaktik o'yinlar ("Nima yo'qoldi?", "Farqini top"); sensor o'yinlar (taktil, akustik, vizual stimullar bilan ishlash); konstruktiv o'yinlar (LEGO, mozaika, pazllar).

#### Vizual qo'llab-quvvatlash texnologiyalari

Motor alaliyali bolalarda nutqiy buzilishlarni kompensatsiya qilish uchun vizual qo'llab-quvvatlash texnologiyalari muhim ahamiyatga ega (Frost L., Bondy A., 2016).

Samarali vizual texnologiyalar: piktogrammalar tizimi (kundalik turmush faoliyatlarini ifodalovchi rasmlar); vizual jadvallar va rejalar (kun tartibi, mashg'ulotlar ketma-ketligi); vizual-fazoviy sxemalar (so'z turkumlari, gap tuzilishi uchun); kommunikatsiya kartochkalari sistemasi.

#### Biologik teskari aloqa (BOS) texnologiyalari

BOS texnologiyalari motor alaliyali bolalarda nutqiy va kognitiv faoliyatni yaxshilashning zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Logoterapevtik BOS" texnologiyasida maxsus kompyuter dasturlari orqali bolalar o'z nutq parametrlarini (temp, ritm, tovush balandligi) vizual nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar (Trefilova L.N., 2019).

#### Multisensor yondashuv texnologiyalari

##### Sensor integratsiya

Sensor integratsiya terapiyasi (Djin Ayres metodikasi) motor alaliyali bolalarda sensor axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan (Ayres E.Dj., 2016). Bu metodika orqali bolalarning taktil, vestibulyar, propriotseptiv, vizual va eshituv sensor sistemalarining uyg'unlashgan holda ishlashiga erishiladi.

Sensor integratsiya elementlari: sensor yo'laklar va sensor xonalar; vestibulyar mashqlar (gamaklar, batutlar, tebranuvchi platformalar); taktil stimulyatsiya (har xil fakturali materiallar bilan ishlash); propriotseptiv mashqlar (tortish, qarshilik ko'rsatish, og'ir yuklamalar).

##### Montessori metodikasi elementlari

Montessori metodikasi elementlarini qo'llash orqali motor alaliyali bolalarning mustaqil faoliyatini va sensor tajribasini boyitish mumkin (Sorokova M.G., 2018). Montessori materiallari bolalarning kognitiv funksiyalarini rivojlantirishga, nutqiy faollikni oshirishga va mayda motorikani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Samarali Montessori materiallari: sensor materiallar (silliq va g'adir-budur yuzali taxtachalar, har xil vaznga ega bo'lgan silindrlar); matematik materiallar (hisob uchun bo'g'inlar, geometrik jismlar); amaliy hayot materiallari (tugmalar, knopkalar, molniyalar); nutqni rivojlantiruvchi materiallar (harfli kartochkalar, tovush qutilari).

#### Kompleks yondashuv va individual ta'lim trayektoriyalari

##### Individual-differensial yondashuv

Motor alaliyali har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (Filicheva T.B., Tumanova T.V., 2020).

Individual-differensial yondashuv prinsiplari: bolaning kuchli tomonlariga tayanish (kompensator mexanizmlarni faollashtirish); bolaning qiziqishlarini hisobga olish (motivatsiyani oshirish); bolaning rivojlanish sur'atiga moslashtirish (bosqichma-bosqich rivojlantirish); korreksion ishning samarali metodlari kombinatsiyasini aniqlash.

##### Multidissiplinar yondashuv

Motor alaliyali bolalar bilan ishlashda multidissiplinar yondashuv, ya'ni turli mutaxassislar (logoped, neyropsixolog, defektolog, psixolog, nevrolog) hamkorligida olib boriladigan kompleks ishlar yuqori samara beradi (Vizel T.G., 2018 [4]).

Multidissiplinar yondashuv sxemasi:

1. Kompleks diagnostika (barcha mutaxassislar tomonidan)
2. Korreksion-rivojlantiruvchi dasturning ishlab chiqilishi
3. Korreksion ishlarning mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi
4. Natijalarning monitoringi va dasturning korreksiyanishi

Ota-onalar bilan hamkorlik texnologiyalari

Oilaviy terapiya elementlari

Motor alaliyali bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanishida ota-onalarning roli juda muhim. Oilaviy terapiya elementlari orqali ota-onalarga bolaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni tushuntirish, ota-ona va bola o'rtasidagi kommunikatsiyani yaxshilash imkoniyati mavjud (Mastyukova Ye.M., Moskovkina A.G., 2019).

Oilaviy terapiya elementlari: ota-onalar uchun psixoedukatsiya (bola holatini tushuntirish); ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni garmonizatsiya qilish; oilaviy munosabatlardagi psixologik muammolarni hal qilish; ota-onalarga stress bilan kurashish strategiyalarini o'rgatish.

Ota-onalar uchun treninglar va konsultatsiyalar

Ota-onalar uchun maxsus treninglar va konsultatsiyalar ularning bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanishidagi ishtirokini faollashtirishga yordam beradi (Arxipova Ye.F., 2018).

Ota-onalar uchun mashg'ulotlar mazmuni: uy sharoitida logopedik mashqlarni o'tkazish texnikasi; bolalar bilan rivojlantiruvchi o'yinlarni tashkil etish; nutqiy faollikni rag'batlantirish usullari; kognitiv funksiyalarni uy sharoitida rivojlantirish yo'llari.

Motor alaliyali bolalar bilan korreksion ishlarni tashkil etishda neyropsixologik, logopedik, psixologik-pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, multidissiplinar yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlik nutqiy va kognitiv rivojlanishda yuqori samara beradi.

Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi

Zamonaviy raqamli texnologiyalar motor alaliyali bolalar bilan ishlashda yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Interaktiv logopedik dasturlar:

- "Logoritmika": nutq va harakatni integratsiyalash uchun interaktiv dastur;
- "Artikulyariy": artikulyatsion apparatni rivojlantirish uchun mobil ilovalar;
- "Svoy golos": BOS texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot.

Kognitiv funksiyalarni rivojlantiruvchi ilovalar:

- "Memorika": xotira va diqqatni rivojlantirish uchun o'yinlar
- "Pazl-terapiya": fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish uchun ilovalar
- "Planshet-logoped": nutq tovushlarini talaffuz qilishga o'rgatuvchi ilova

Raqamli texnologiyalarning afzalligi shundaki, ular bolalar uchun qiziqarli, motivatsiyani oshiruvchi vosita bo'lib, korreksion jarayonni yanada samaraliroq qiladi

Innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlari

Motor alaliyali bolalar bilan ishlashda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. Medik ta'minot: metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar; korreksion-pedagogik metodik materiallar to'plami; vizual materiallar (plakatlar, xaritachalar, sxemalar); elektron metodik resurslar.

2. Kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish: logopedlar uchun maxsus kurslar; neyropsixologik diagnostika va korreksiya bo'yicha seminarlar; multidissiplinar yondashuv bo'yicha treninglar; ota-onalar uchun maslahat punktlari.

3. Tashkiliy-pedagogik sharoitlar: sensor xonalar yaratish; zarur materiallar va jihozlar bilan ta'minlash; logopedik xonalarni maxsus uskunalar bilan jihozlash; raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun texnik ta'minot.

Maktabga tayyorgarlik darajasiga ta'siri

5-6 yoshdagi motor alaliyali bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. Nutqiy tayyorgarlik: tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish; lug'at boyligi; grammatik tuzilmalarni qo'llash; bog'lanishli nutq.

2. Kognitiv tayyorgarlik: diqqatni jamlash qobiliyati eshitish va ko'rish xotirasi; mantiqiy tafakkur; fazoviy tasavvurlar.

3. Ijtimoiy-kommunikativ tayyorgarlik: tengdoshlar bilan muloqot; kattalar bilan muloqot; jamoaviy ish ko'nikmalari.

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha innovatsion texnologiyalar, eng avvalo, bolaning individual xususiyatlariga, uning qiziqishlariga va ehtiyojlariga mos kelishi, bolaning o'ziga xosligini hurmat qilishi va rivojlanish uchun qulay sharoitlarni yaratishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, motor alaliyali 5-6 yoshdagi bolalarning nutqiy va kognitiv xususiyatlarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari kompleks, tizimli va individual yondashuvga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, individual-differensial yondashuv asosida korreksion dasturlarni ishlab chiqish, multidissiplinar hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ota-onalarni faol pedagogik jarayonga jalb etish motor alaliyali bolalarda barqaror rivojlanish natijalarini ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini oshirish, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish va keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu sababli logopedik amaliyotda ilmiy asoslangan innovatsion texnologiyalarni tizimli qo'llash dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shokirova Sh.D. SH.E.Taxtiyarova, N.Z.Abidova. Nutqning ontogenezdagi rivojlanishi. O'quv qo'llanma, T.: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti, 2020

2. Mardonova D.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali 2025-yil 3-son

3. Архипова Е.Ф. Логопедическая работа с детьми раннего возраста. - М.: АСТ, 2018. - 224 с.

4. Визель Т.Г. Основы нейропсихологии. - М.: АСТ, 2018. - 384 с.
5. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. - Екатеринбург: ЛИТУР, 2014. - 320 с.
6. Кольцова М.М. Ребенок учится говорить. Пальчиковый игротренинг. - М.: У-Фактория, 2015. - 224 с.
7. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. - М.: Альянс, 2005. - 368 с.
8. Семенович А.В. Нейропсихологическая коррекция в детском возрасте. Метод замещающего онтогенеза. - М.: Генезис, 2018. - 474 с.
9. Филичева Т.Б., Туманова Т.В. Дети с общим недоразвитием речи. Воспитание и обучение. - М.: Гном, 2016. - 232 с.
10. Хватцев М.Е. Логопедия: Работа с дошкольниками. - М.: АСТ, 2016. - 272 с.
11. Шашкина Г.Р. Логопедическая работа с дошкольниками. - М.: Academia, 2014. - 256 с.
12. Шиппгсидова А.В. Методы обследования речи детей: Пособие по диагностике речевых нарушений. - М.: АРКТИ, 2017. - 240 с.